

OPERATIV NAZORAT MUTAXASSISLAR NIGOHIDA

Askar TALIPDJANOV

Pedagogika fanlari nomzodi, professor, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada anketa tadqiqotining natijalari va tahlili – yosh futbolchilarning mashg'ulotlarga tayyorligi va chidamliligi va yuklamalarning kompleks monitoringini baholash ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: futbol treneri, so'rovnoma, nazorat, rejalashtirish, shoshilinch mashg'ulot effekti, testlash.

Sportchining holatini baholash texnologiyasi bir qator ketma-ket va o'zaro bog'liq harakatlarni o'z ichiga oladi. Trener mashg'ulot ta'siri orqali sportchining holatini o'zgartiradi, bu mashg'ulot samaradorligi sifatida baholanadi. Trenerning ta'siri ijobiy, salbiy va neytral bo'lishi mumkin. Biz qanday mashg'ulot effektini olganimizni bilish uchun nazorat tizimida teskari aloqa mavjud, ya'ni sportchidan trenerga keladigan ma'lumotlar. U sportchi faoliyatining turli tomonlarini kuzatish orqali olinadi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, trener sport mashg'ulotlari vositalari va usullarini tanlaydi va ularni vaqt bo'yicha taqsimlaydi, ya'ni mashg'ulot jarayonini rejalashtiradi.

Ushbu tadqiqot davomida bolalar futboli mutaxassislaridan ma'lumotlarni olish va tahlil qilish vazifasi qo'yildi. Sport maktablari, futbol akademiyalaridagi yetakchi mutaxassislardan ma'lumot olish zarurati tug'ildi. Yosh futbolchilarning mashg'ulotlarga tayyorgarligi va o'quv-mashg'ulot yuklamalari monitoringini baholash maqsadida futbol trenerlari malakasini oshirish kurslari tinglovchilari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnoma asosida sport mutaxassislari haqida quyidagi ma'lumotlar olindi:

- yoshi;
- lavozimi;
- trenerlik tajribasi;
- sport darajasi.


Bizning fikrimizcha, trenerlarning mashg'ulot yuklamalarining tezkor baholash samarasi bo'yicha testlash tartibiga va amaliyotda operativ nazorat testlaridan foydalanishga munosabatini aniqlash dolzarb edi.

1.1. Respondentlarning xususiyatlari

Ish joyi. So'rov davomida biz bolalar va o'smirlar futboli bo'yicha faoliyat yurituvchi mutaxassislardan intervyu olishga muvaffaq bo'ldik.

Respondentlar orasida 9 nafar mutaxassis futbol akademiyasida, so'ralgan kontingentning 53% futbol bo'yicha sport maktabida ishlaydi.


So'rovnomada yengil atletika va sport o'yinlari bo'yicha sport maktabi vakili bo'lgan 2 nafar trener hamda, Toshkent shahridagi "Yosh gvardiya" sport maktabidan 2 nafar vakil ishtirok etganini ta'kidlash lozim (1-rasm).



1-rasm. Trenerlarning ish joyi

1.2. Respondentlarning yoshi


So'ralgan kontingentning yosh xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mutaxassislarning 25% 27 yoshdan 33 yoshgacha, respondentlarning 14% 34 yoshdan 39 yoshgacha, 28% 40-45 yosh, 4 nafar trener 50 yosh va undan katta (2-rasm).



2-rasm. Mutaxassislarning yoshi


1.3. Trenerlik tajribasi

So'rov natijalariga ko'ra, mutaxassislarning 14% o'rtacha 25 yildan ortiq trenerlik tajribasiga ega. 10-19 yillik ish stajiga ega bo'lgan suhbatdosh trenerlar soni 28% ni tashkil etadi, suhbatdan o'tgan mutaxassislarning 14% 5 yildan kam ish stajiga ega, 6 nafar trener 20-25 yillik darajaga yetgan. Olingan ma'lumotlar trenerlar korpusining tuzilishi haqida fikr yuritishga asos beradi (3-rasm).



3-rasm. Mutaxassislarning trenerlik tajribasi

So'ralgan mutaxassislardan 46% futbol maktablari trenerlari, 32% futbol akademiyasi, trenerlarning 11% jismoniy tarbiya o'qituvchisi lavozimida ishlaydi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ikkitasi yordamchi trener sifatida ko'rsatilgan (4-rasm).



1.4. Trenerlar o'rtasida anketa so'rovi natijalarini tahlil qilish

Anketaga berilgan javoblar tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik trenerlar operativ nazorat va operativ rejalashtirishning maqsad va vazifalari haqida aniq tushunchaga ega emaslar.

Ko'pgina trenerlar operativ rejalashtirish tushunchasini joriy rejalashtirish bilan chalkashtirib yuboradi, chunki bir hafta davomida mashg'ulotlarni rejalashtirishni "operativ rejalashtirish" deb hisoblaydilar.

Anketaning birinchi savoliga "Futbolchilarning o'quv-mashg'ulot faoliyatini qanday baholaysiz?" - so'rovda qatnashgan 28 nafardan 12 nafari ijobiy javob berdi. Ushbu maqsadlar uchun yurak urish tezligi ko'rsatkichlari va ba'zi pedagogik testlar qo'llaniladi, masalan, 15 m yugurish, tik turgan holda uzunlikka sakrash.

"Jismoniy tayyorgarlikni nazorat qilish uchun qanday testlardan foydalanasiz?" degan savolga trenerlarning 62% "30 m yugurish", "60 m yugurish", "tik turgan holda uzunlikka sakrash", "Yo-Yo" testi va PWC 170 va kislorodni maksimal iste'molini taklif qilishgan. Respondentlarning 15% o'yinda futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini pedagogik kuzatish natijalaridan foydalanishlarini ko'rsatgan.

Ta'kidlash joizki, so'rovda qatnashganlarning 23% umumiy jismoniy tayyorgarlikni nazorat qilish zarur deb hisoblasa-da, testlash jarayoniga yetarlicha e'tibor berishmaydi.

Respondentlarning 93% futbolchilarning operativ holatini baholashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqligini qayd etishgan, bu esa yuqori ko'rsatkichdir.

O'zlarining amaliy faoliyatida ular "Polar" tizimidan, "Catapult" - "Kardi" dasturidan, millisekundomer, "Pulso-taxometr" dan foydalanish maqsadga muvofiqligini bildirgan.

"O'quv-mashg'ulot yuklamalari qanday qayd etiladi?" degan savolga barcha trenerlar bir xil javob bergani, ya'ni yuklamalar faqat qog'oz ko'rinishida qayd etilishi ma'lum bo'ldi (sportchining kundaligi, trenerning o'zi yozuvi va boshqalar). So'rovnoma ishtirok etgan trenerlarning hech biri yuklamalarni hisobga olishning elektron tizimidan amaliyotda foydalanmasligi aniqlandi.

Xulosa. Trenerlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, operativ nazorat testlarini tanlash va asoslash, shuningdek, ulardagi natijalarni o'lchash usullari bilan bog'liq muammolar yetarlicha hal etilmagan.

Bu holat, ko'rinib turibdiki, qo'llanilgan testlarning ko'pchiligi bosqichli va joriy nazorat ko'rsatkichlari sifatida qo'llanilganligi, ikkinchidan, o'quv mashg'ulotlari yuklamasini rejalashtirish uchun operativ nazorat natijalarini baholash va ulardan foydalanishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq.

Ko'pgina trenerlar test jarayonining muhimligini tushunadilar va ko'pincha undan

foydalanadilar yoki tayyorgarlik jarayonida umuman foydalanmaydilar.

Shuningdek, trenerlarning katta qismi (65%) ilmiy asoslangan ixtisoslashtirilgan o'quv-mashg'ulot mashqlaridan foydalanmasligi ham ma'lum bo'ldi. Ularning atigi 25% o'z amaliyotida oldindan ma'lum bo'lgan yuklama xususiyatlariga ega ilmiy asoslangan maxsus mashqlardan foydalanadi.

Аннотация. В статье рассматриваются результаты и анализ анкетного исследования, направленного на оценку комплексного контроля подготовленности и переносимости тренировочных и соревновательных нагрузок юных футболистов. Выявлено, что большинство тренеров, работающих с детско-юношескими контингентами, путают понятие оперативного планирования с текущим, считая, что планирование учебно-тренировочного занятия на неделю является оперативным планированием.

Ключевые слова: тренер по футболу, анкетирование, контроль, планирование, срочный тренировочный эффект, тестирования.

Abstract. The article discusses the results and analysis of a questionnaire study aimed at assessing the comprehensive control of readiness and tolerance of training and competitive loads of young football players. It was revealed that the majority of trainers working with children and youth groups confuse the concept of operational planning with current planning, believing that planning a training session for a week is operational planning.

Keywords: football coach, questionnaire, control, planning, urgent training effect, testing.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. F.A.Kerimov – Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. – T.: O'zDJTI, 2004.
2. Кашуба В.А., Валиков Д.П., Сергиенко К.Н. Компьютерные технологии в системе высшего физкультурного образования // Физ. воспитание студентов творческих специальностей: Сб. науч. тр. – Харьков: 2002. – №6. – С. 22–27.
3. Вершинин М.А., Новиков Д.Л. Результаты анкетирования тренеров и спортсменов различной квалификации о значимости перестраивания стилей ведения поединка в дзюдо // Фундаментальные исследования. – 2015. – № 2. – С. 335–338.
4. Барникова И.Э. Информационные технологии в обработке анкетных данных в педагогике и биомеханике спорта – Санкт-Петербург: 2017. – 109 с.